

## AXBOROT MAKONIDA EKSTERIMIZM G‘OYALARIGA QARSHI KURASHNING MAFKURAVIY ASOSLARI

Burgutxonov Saidumarxon Sirojiddin o‘g‘li  
O‘zXIA “Dinshunoslik va jahon dinlarini  
qiyosiy o‘rganish UNESCO” kafedrası o‘qituvchisi  
Tel.: +998 (93) 566-98-22

E-mail: [sayyidumarxon98@gmail.com](mailto:sayyidumarxon98@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20539181>

Globalashuv sharoitida axborot makonining kengayishi va g‘oyaviy kurashning keskinlashuvi jamiyat, ayniqsa yoshlar ongiga ta‘sir ko‘rsatish masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda. Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda”<sup>1</sup>. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali turli mafkuraviy ta‘sirlarning kuchayishi sharoitida aholi, xususan yosh avlodda mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, samarali targ‘ibot va tashviqot faoliyati jamiyatni yot g‘oyalar ta‘siridan himoya qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda diniy-ekstremistik oqimlar o‘z faoliyatini asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan internet tarmog‘i orqali amalga oshirmoqda. Ular yoshlarni jalb etishda diniy tushunchalarni noto‘g‘ri talqin qilish, turli targ‘ibot materiallarini elektron shaklda tarqatish hamda yashirin tarmoqlarni tashkil etish kabi usullardan foydalanmoqda. Natijada ayrim yoshlarning radikal g‘oyalarga berilib ketishi va mojaroli hududlarga jalb etilishi kabi salbiy holatlar kuzatilmog‘da. Mutaassib oqimlar diniy tushunchalarni soxta talqin qilib, yoshlarni mojaroli hududlarga jalb etishga harakat qiladi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi esa bu jarayonlarning global axborot makonida tez tarqalishiga va madaniyatlararo chegaralarning nisbiylashuviga sabab bo‘lmoqda<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikning dastlabki yillaridanoq davlat va din munosabatini aniq huquqiy hamda demokratik tamoyillar asosida belgilab olgan. Bu yondashuv “Inson e‘tiqodsiz yashay olmaydi” va “Dunyoviylik – dahriylik emas” kabi prinsiplar bilan ifodalanib, Konstitutsiya hamda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunda o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 16 diniy konfessiyaga mansub 2 300 dan ziyod diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Ular orasida islom, xristian, yahudiy, bahoii jamoalari, shuningdek boshqa diniy yo‘nalishlar vakillari ham mavjud bo‘lib, O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlik tamoyillari amalda ta‘minlangan<sup>3</sup>. Diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat‘i nazar, faoliyat borasida bir xil huquqqa egadirlar. Ushbu diniy tashkilotlarning emin-erkin faoliyat olib borayotgani ham yurtimizda hukm surayotgan diniy bag‘rikenglikning amaliy ifodasidir<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. –B. 87.

<sup>2</sup> Diniy bag‘rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga yuz javob) / Achildiev A. va boshqalar. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. –B. 45.

<sup>3</sup> [www.religions.uz](http://www.religions.uz) (06.04.2026-yil)

<sup>4</sup> Husnidinov Z. va boshqalar. Jaholatga qarshi ma‘rifat - tinchlik va barqarorlik omili. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003. –B. 76.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqishning ortishi globallashuv jarayonlarining muhim ijtimoiy-madaniy natijalaridan biri sifatida baholanadi. Shu bilan birga, kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi g'oyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirib, diniy omildan foydalanilgan mafkuraviy kurash shakllarining kuchayishiga ham zamin yaratmoqda.

So'nggi yillarda Yaqin Sharq mintaqasida yuzaga kelgan qurolli mojarolar va noqonuniy tuzilmalar faoliyati natijasida Iroq, Suriya va Liviya kabi davlatlarda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar yuzaga kelgan. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, mazkur to'qnashuvlar oqibatida katta miqdordagi iqtisodiy yo'qotishlar qayd etilib, aholi turmush darajasining keskin pasayishi va ishsizlikning ortishi kuzatilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi<sup>5</sup>. Siyosiy hokimiyatga intiluvchi, diniy shiorlarni niqob qilgan ayrim aqidaparast oqimlar Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishga harakat qilmoqda. Ular o'z faoliyatini yashirin shaklda olib borib, asosan internet, ijtimoiy tarmoqlar va mehnat migrantlari orasida targ'ibot qilishga urinmoqda.

Mutaxassislar qayd etishicha, bugungi kunda ekstremistik mazmundagi materiallar tarqatilayotgan yuz minglab internet resurslari mavjud bo'lib, ularda yoshlar ongiga radikal g'oyalar singdirilmoqda. Natijada ayrim ijtimoiy jihatdan zaif va yetarli diniy bilimga ega bo'lmagan shaxslar turli mojaroli hududlarga jalb etilmoqda.

So'nggi yillarda terroristik tashkilotlar g'oyalarini targ'ib-tashviq qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshgan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo'lsa, bugungi kunda dunyoda terroristlar foydalanadigan 10 mingdan ortiq internet saytlari mavjud bo'lib, ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda<sup>6</sup>.

Shuningdek, bunday oqimlar internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z targ'ibotini kengaytirib, “ijtimoiy tarmoqlar”ni mafkuraviy ta'sir vositasiga aylantirmoqda. Umuman olganda, diniy ekstremistik guruhlar tomonidan tinch aholiga qarshi zo'ravonlik harakatlari amalga oshirilayotgani va bu holat ularning asl mohiyatini ochib bermoqda.

Ming afsuski, ayrim yoshlarning noto'g'ri diniy ta'sirlar oqibatida mojaroli hududlarga borib qolishi kuzatilmoqda, bu esa ularning radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolish xavfini oshirmoqda. Bunday oqimlar jamiyatda “haqiqiy” va “soxta” dindorlik kabi qarama-qarshi qarashlarni shakllantirib, ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Diniy ekstremistik guruhlar faoliyati bosqichma-bosqich strategiya asosida amalga oshirilib, avval aholining ayrim qatlamlarini radikal g'oyalarga moyil qilish, keyinchalik esa mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatini shakllantirish hamda so'nggi bosqichda noqonuniy siyosiy maqsadlarga erishishga yo'naltiriladi.

Ekstremistik g'oyalar ta'sirini kamaytirishda asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat: aholi bilan doimiy ma'naviy-ma'rifiy ishlar olib borish, ta'lim muassasalari va mahallalarda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi targ'ibot tadbirlarini kengaytirish, noqonuniy diniy ta'limning oldini olish, hamda OAV va internetda ilmiy asoslangan raddiyalarni ko'paytirish.

<sup>5</sup> Islom va hozirgi zamon / O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir Sh.Yovqochev. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot- matbaa birlashmasi, 2010. –B. 67.

<sup>6</sup> M.Alimova, S.Burgutxonov. Jahon dinlari: Islom tarixi, ta'limoti, manbalari, an'analari (Monografiya). – Toshkent: “O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2024. –B. 140.

Shuningdek, diniy muassasalar va mutaxassislar tomonidan sog‘lom islom ta‘limotini targ‘ib qilish, yoshlar va mehnat migrantlari bilan tushuntirish ishlarini kuchaytirish, hamda ijtimoiy hamkorlik orqali ekstremistik g‘oyalar ta‘sirini kamaytirish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, mamlakatga diniy-ekstremistik mazmundagi materiallarning kirib kelishi va tarqatilishi holatlari kuzatilmoqda. Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, so‘nggi davrda yuzlab diniy mazmundagi materiallar ekspertizadan o‘tkazilib, ularning muhim qismi radikal g‘oyalarni targ‘ib etuvchi mazmunga ega ekani aniqlangan. Bu esa ekstremizmga qarshi tizimli ma‘naviy-mafkuraviy profilaktika ishlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Voyaga yetgan yoshlar orasida ekstremistik mazmundagi materiallarga jalb etilish holatlari kuzatilayotgani ushbu masalaga alohida e‘tibor qaratishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni hayotiy sinovlar, g‘oyaviy tahdidlar hamda turli soxta mafkuraviy ta‘silardan ogohlantirish, ularning huquqiy va ma‘naviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Diniy ekstremizm va terrorizm jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi omil sifatida ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, dinlararo va millatlararo munosabatlarni keskinlashtirish hamda yoshlarni mojaroli hududlardagi noqonuniy tuzilmalarga jalb etish kabi xavflarda namoyon bo‘ladi.

Shu bois, mazkur xavfga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, BMT va ShHT kabi xalqaro tashkilotlar doirasida qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta‘minlash muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston ham terrorizmga qarshi kurashga oid bir qator xalqaro hujjatlarga qo‘shilgan holda, bu yo‘nalishda faol hamkorlik qilib kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘zaro hamkorligi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, profilaktik va ma‘rifiy-tushuntirish ishlarini kuchaytirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Diniy ekstremistik oqim a‘zolari fuqarolarning e‘tiqodi yoki dunyoqarashi uchun emas, balki amaldagi Jinoyat va Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortiladi. Oqimga adashib kirgan shaxs o‘z xatosini anglab, pushaymon bo‘lsa va tergovga ko‘maklashsa, Jinoyat kodeksining 244-2-moddasiga muvofiq javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

Jamiyatda profilaktik va ma‘rifiy ishlar ommaviy axborot vositalari hamda tegishli davlat va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilib, aholining, ayniqsa yoshlarning ekstremistik g‘oyalarga qarshi immunitetini kuchaytirishga qaratilgan. Bu jarayonda Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, diniy ta‘lim muassasalari, jamoat fondlari hamda ma‘naviyat targ‘iboti bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar hamkorlikda tizimli faoliyat olib bormoqda. Targ‘ibot ishlari OAV, internet resurslari, ta‘lim muassasalari va mahalla tizimi orqali keng yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, mutaxassislar va ulamolar tomonidan tayyorlangan ilmiy-ma‘rifiy materiallar orqali aqidaparastlik g‘oyalarining mohiyati fosh etilib, aholining xabardorligi oshirilmoqda. Biroq ekstremistik targ‘ibotning kengayib borayotgani ushbu sohada aksiltarg‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish va zamonaviy, ta‘sirchan usullarni joriy etishni talab etadi.

Markaziy Osiyoda Global aksilterror strategiyasi doirasida olib borilayotgan samarali hamkorlik natijasida O‘zbekiston tomonidan muhim tashabbus ilgari surildi. Jumladan, rehabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha Mintaqaviy Kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklifi bildirildi<sup>7</sup>. Mazkur tashabbus jamiyatda diniy

<sup>7</sup> Burgutxonov S. O‘zbekistondagi bag‘rikenglik siyosatining xalqaro darajadagi namoyishi // Islom tafakkuri (4-maxsus son). – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025. –B. 90.

bag'rikenglikni mustahkamlash, “jaholatga qarshi ma'rifat” tamoyilini keng targ'ib etish hamda ekstremistik va buzg'unchi g'oyalarning oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida jamiyat barqarorligini ta'minlash kompleks yondashuvni talab etadi. Tinchlik va xavfsizlikni asrash, ayniqsa yoshlar ongida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash hamda ularda yot g'oyalar ta'siriga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur jarayonda davlat organlari, ta'lim tizimi, diniy soha vakillari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli ravishda kuchaytirish orqali jamiyatda barqarorlikni saqlash va ekstremistik tahdidlarga qarshi barqaror ijtimoiy immunitetni shakllantirish mumkin.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Burgutxonov S. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosatining xalqaro darajadagi namoyishi // Islom tafakkuri (4-maxsus son). – Toshkent: “O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2025. –B. 90.
2. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga yuz javob) / Achildiev A. va boshqalar. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. – 200 b.
3. Husnidinov Z. va boshqalar. Jaholatga qarshi ma'rifat - tinchlik va barqarorlik omili. – Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2003.
4. Islom va hozirgi zamon / O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir Sh.Yovqochev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot- matbaa birlashmasi, 2010. – 210 b.
5. M.Alimova, S.Burgutxonov. Jahon dinlari: Islom tarixi, ta'limoti, manbalari, an'analari (Monografiya). – Toshkent: “O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2024. – 156 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.